

Akademik Namangan viloyati ziyolilari bilan uchrashdi



Fanlar akademiyasi akademigi Shuhrat Sirojiddinov Namangan viloyati To'raqo'rg'on tumani 5-umumta'lim mакtabida To'raqo'rg'on va Chust tumanlari ziyolilari, mahalla faollari bilan uchrashuv o'tkazdi. Uchrashuvda maktab direktorlari, ma'naviyat ishlari bo'yicha direktor o'rinosarlari, mahalla

yoshlar yetakchilari va tumanlardagi ma'naviy masalalarga mas'ullar, shuningdek, viloyat va tumanlar hokimlarining davlat tili bo'yicha maslahatchilari ishtirok etishdi.

Akademik Sh.Sirojiddinov o'z ma'rzasida O'zbekistonning hozirgi davrdagi ichki va tashqi siyosati, xususan, bugungi kunda mamlakatimizda olib borilayotgan keng ko'lamli islohotlar mohiyati haqida batafsil tushuntirishlar berdi. Olimning alohida qayd etishicha, yurtimizda Prezidentimiz Shavkat Mirziyoev boshchiligidagi olib borilayotgan oqlona siyosat tufayli Uchinchi Renessans poydevorini yaratish va Yangi O'zbekistonni barpo etishda dadil qadamlar tashlanmoqda. So'nggi yillarda O'zbekiston o'z taraqqiyotida yangi davrga qadam qo'ydi. Siyosiy, iqtisodiy, ijtimoiy, madaniy-gumanitar sohalarda ulkan o'zgarishlar amalga oshirilmoqda. Yurtimizdagagi islohotlar nafaqat mamlakatning ichida, balki mintaqada ham sifat jihatdan mutlaqo yangi muhitni yaratdi. Markaziy Osiyoda yaxshi qo'shnichilik munosabatlarini tarixiy yangi bosqichga olib chiqdi. Biroq mevali daraxtga tosh otadilar deganlaridek, davlatimizning yuksalib borayotgani, tashqi siyosiy va iqtisodiy aloqalardagi muvaffaqiyatlaridan bezovtalangan chetdagi qudratli markazlarning turli ko'rinishdagi po'pisalarga asoslangan chiqishlari har bir o'zbek ziyolisini xavotirga solishi tabiiy. Ikkinci tomondan, internet makonida tobora kuchayib borayotgan ommaviy madaniyat targ'iboti, fahsh va zo'ravonlik ko'rinishlarini zo'r berib singdirishga qaratilgan harakatlar aks etgan materiallar yoshlarimiz tarbiyasiga jiddiy salbiy ta'sir ko'rsatmoqda.

Uchrashuv jarayonida akademik Sh.Sirojiddinov bugungi tahlikali davrda yoshlarimiz tarbiyasi bilan jiddiy shug'ullanish, davlatimiz tomonidan maktablarda davomatni ta'minlash, maktabgacha ta'lim va mакtab ta'limi tizimida milliy qadriyatlarimiz, vatanparvarlik, millatparvarlik kabi fazilatlarni shakllantirish bo'yicha amalga oshirilayotgan chora-tadbirlarda faol ishtirok etish soha mutasaddilari, rahbarlar, tarbiyaviy ishlarga mas'ul bo'lgan kimki bor, barchaning muqaddas burchiga aylanishi haqida o'z fikrlarini bayon qildi.

Uchrashuvda so'z olgan Namangan viloyat hokimining ma'naviy-ma'rifiy ishlar samaradorligini oshirish, davlat tili to'g'risidagi qonun hujjatlariga riosa etilishini ta'minlash masalalari bo'yicha maslahatchisi Iroda Qo'chqorova, To'raqo'rg'on tuman hokimining yoshlar siyosati, ijtimoiy rivojlantirish va ma'naviy-ma'rifiy ishlar bo'yicha o'rinosari Ikromjon Parpiyev ko'tarilgan dolzarb masalalarga oid o'z fikrlari bilan o'rtoqlashdilar. Uchrashuv so'ngida yig'ilish ishtirokchilari ham mavzu doirasida o'z qarashlari bilan o'rtoqlashdilar.